

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриiddиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddrat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIV TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karievva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	
RAQAMLI MARKETING VA ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI EKOTURISTIK MAJMUALARNI OMMALASHTIRISH TRENDI	318
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR	323
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
РАЗВИТИЕ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	327
Бахтиёров Худайберган Хамдам угли	
MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	335
Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich	



MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Biznes va boshqaruv kafedrası o'qituvchisi

E-mail: hamidjonxudoyqulov@urdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati mahalliy budjeti misolida transfertlarga qaramlik darajasi empirik usullar orqali baholangan. 2020–2024 yillar davomidagi budjet ma'lumotlari asosida transfertga qaramlik indeksi (TDI), moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (MMK) hamda fiskal tafovut ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan. Regressiya tahlili natijalari transfert hajmi va budjet xarajatlari o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi ($\beta = 0,4538$; $R^2 = 0,598$). O'rganilgan davrda Xorazm viloyatida TDI ko'rsatkichi 25,67–51,14 foiz oralig'ida tebranib, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. 2023 yil transfertlarga eng yuqori darajadagi qaramlik kuzatilgan yil sifatida ajralib turadi. Tadqiqot natijalari asosida mahalliy soliq bazasini kengaytirish, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish hamda fiskal desentralizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, transfert, fiskal qaramlik, moliyaviy mustaqillik, budjetlararo munosabatlar, Xorazm viloyati, desentralizatsiya.

Abstract. This article empirically evaluates the level of transfer dependency using the example of the local budget of the Khorezm region. Based on budget data for the period 2020–2024, the Transfer Dependency Index (TDI), the Financial Independence Coefficient (FIC), and fiscal gap indicators were calculated. The results of regression analysis indicate a significant relationship between the volume of transfers and budget expenditures ($\beta = 0.4538$; $R^2 = 0.598$). During the analyzed period, the TDI in the Khorezm region fluctuated between 25.67% and 51.14%, exceeding the national average. The year 2023 stands out as the period with the highest level of transfer dependency. Based on the findings, recommendations were developed to expand the local tax base, improve intergovernmental fiscal relations, and deepen fiscal decentralization processes.

Key words: local budget, transfers, fiscal dependency, financial independence, intergovernmental fiscal relations, Khorezm region, decentralization.

Аннотация. В данной статье на примере местного бюджета Хорезмской области проведена эмпирическая оценка уровня зависимости от трансфертов. На основе бюджетных данных за 2020–2024 годы рассчитаны индекс трансфертной зависимости (TDI), коэффициент финансовой самостоятельности (КФС), а также показатели фискального разрыва. Результаты регрессионного анализа показали наличие значимой связи между объемом трансфертов и бюджетными расходами ($\beta = 0,4538$; $R^2 = 0,598$). В исследуемый период значение TDI в Хорезмской области колебалось в пределах 25,67–51,14 %, что превышает среднереспубликанский уровень. 2023 год выделяется как период наибольшей зависимости от трансфертов. По результатам исследования разработаны рекомендации по расширению местной налоговой базы, совершенствованию межбюджетных отношений и углублению процессов фискальной децентрализации.

Ключевые слова: местный бюджет, трансферты, фискальная зависимость, финансовая самостоятельность, межбюджетные отношения, Хорезмская область, децентрализация.



KIRISH

Jahon tajribasida fiskal desentralizatsiya davlat boshqaruvini takomillashtirish va mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy hukumatlar o'z vakolatlarini samarali amalga oshirish jarayonida markaziy budjetdan ajratiladigan transfertlardan foydalanadi. Bunday holat ayrim hududlarda transfertlarga nisbatan ma'lum darajadagi qaramlikni shakllantirishi mumkin hamda mahalliy moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida budjet tizimini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. "Yangi O'zbekiston" strategiyasi hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, fiskal desentralizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish va hududlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash ustuvor vazifalar qatorida belgilangan.

Xorazm viloyati o'zining geografik xususiyatlari, iqtisodiy faoliyat tarkibining nisbatan cheklangan diversifikatsiyasi hamda aholining muhim qismi qishloq hududlarida istiqomat qilishi bilan ayrim boshqa hududlardan farqlanadi. Ushbu omillar viloyat budjetida markaziy transfertlarning muhim o'rin tutishini belgilab beruvchi institutsional omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — 2020–2024-yillar dinamikasida Xorazm viloyati mahalliy budjetidagi transfertlarga bog'liqlik darajasini miqdoriy usullar asosida baholash, uni respublika o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslash hamda mavjud holatni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, mazkur masala nafaqat Xorazm viloyati, balki O'zbekistonning boshqa hududlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va fiskal mustaqilligini kuchaytirish masalalari iqtisodiy siyosat hamda ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transfertlarga qaramlik muammosi fiskal federalizm nazariyasining muhim masalalaridan biri sifatida keng o'rganilgan. Oates (1972) [1] tomonidan ishlab chiqilgan fiskal federalizm nazariyasiga ko'ra, mahalliy hukumatlar o'zlarining budjet ehtiyojlarini asosan o'z daromadlari hisobidan qoplashi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq amaliyotda markaziy budjetdan transfertlar olish ko'plab davlatlarda budjet tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Bird va Smart (2002) [2] transfertlarning uch asosiy funksiyasini ajratib ko'rsatadi: vertikal nomuozanlatni bartarafetish, gorizontall tenglashtirish hamda mahalliy hukumatlarni rag'batlantirish. Mualliflarning ta'kidlashicha, transfertlar ulushining haddan tashqari ortishi ayrim hollarda mahalliy hukumatlarning o'z daromad bazasini kengaytirishga bo'lgan faolligini kamaytirishi mumkin. Bu holat ilmiy adabiyotlarda ba'zan "moliyaviy passivlik" (fiscal laziness) fenomeni sifatida izohlanadi.

Rodden (2002) [3] va Weingast (2009) [4] tadqiqotlari ham yuqori transfert ulushi mahalliy hukumatlarning o'z soliq bazasini kengaytirishga bo'lgan rag'batiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etadi. Natijada ayrim hududlarda budjet muvozanatini ta'minlash masalasi murakkablashib, markaziy moliyaviy resurslarga tayanish darajasi ortishi kuzatilishi mumkin.

Markaziy Osiyo mintaqasida fiskal desentralizatsiya masalalarini o'rgangan Kurlyandskaya va boshqalar (2012) [5] post-sovet davlatlarida transfertlarga tayanish darajasi nisbatan yuqori ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda O'zbekistonda ham markazlashgan budjet tizimining muhim rol o'ynashi qayd etilgan. O'zbekistonlik olimlardan Ergashev (2019) [6] va Toshmatov (2021) [7] mahalliy budjetlarning soliq daromadlari shakllanishi hamda ularning imkoniyatlarini empirik jihatdan tahlil qilgan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatining transfertlarga qaramlik darajasini miqdoriy jihatdan baholashga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu ilmiy bo'shliq mazkur maqolaning dolzarbligi va yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi [8] hamda Davlat statistika qo'mitasining [9] rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi. Xorazm viloyati, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining 2020–2024-yillar bo'yicha yig'ma ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Barcha ko'rsatkichlar joriy narxlarda milliard so'mda ifodalangan.



1-jadval. Xorazm viloyati mahalliy budjeti asosiy ko'rsatkichlari (mlrd so'm)

Yil	Daromad	Xarajat	Transfert	TDI (%)	MMK (%)
2020	1 303	2 279	976	42,83	57,17
2021	1 743	3 345	1 602	47,89	52,11
2022	2 384	4 486	2 101	46,83	53,14
2023	2 740	5 610	2 869	51,14	48,84
2024	2 877	4 691	1 204	25,67	61,33

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tadqiqotda quyidagi asosiy koeffitsiyentlardan foydalanildi:

Transfertga qaramlik indeksi (TDI) — mahalliy budjetning transfertlarga bog'liqligi darajasini ifodalaydi va quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$TDI = (\text{Transfert} / \text{Xarajat}) \times 100\%$$

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (MMK) — mahalliy budjet daromadlarining umumiy xarajatlarga nisbatini ko'rsatadi:

$$MMK = (\text{Daromad} / \text{Xarajat}) \times 100\%$$

Fiskal tafovut (FT) — budjet kamomadi yoki ortiqchasini ifodalaydi:

$$FT = \text{Xarajat} - \text{Daromad} \text{ (yopishning transfert ulushi orqali baholanishi)}$$

Qo'shimcha ravishda oddiy chiziqli regressiya modeli qo'llanildi. Bog'liq o'zgaruvchi sifatida transfert hajmi (T), mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa xarajat (X) va daromad (D) ko'rsatkichlari tanlandi. Regressiya modeli quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:


$$T = \alpha + \beta \cdot X + \varepsilon \text{ (1-model: transfert ~ xarajat)}$$

$$T = \alpha + \beta \cdot D + \varepsilon \text{ (2-model: transfert ~ daromad)}$$

Tahlil va natijalar

Xorazm viloyati mahalliy budjetining asosiy ko'rsatkichlari 2020–2023-yillar davomida izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. 2020-yildagi 1 303 mlrd so'mlik daromad hajmi 2024-yilga kelib 2 877 mlrd so'mga yetdi, bu esa qariyb 2,2 barobar o'sishni anglatadi. Shu bilan birga, budjet xarajatlari 2020-yildagi 2 279 mlrd so'mdan 2023-yilda 5 610 mlrd so'mga ko'tarilib, 2024-yilda 4 691 mlrd so'mni tashkil etdi (1-rasm).

Xorazm viloyati mahalliy budjeti asosiy ko'rsatkichlari (2020–2024)




1-rasm. Xorazm viloyati mahalliy budjeti asosiy ko'rsatkichlari (2020–2024)

Transfert hajmi 2020-yildagi 976 mlrd so'mdan 2023-yilda 2 869 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,9 barobarga oshdi. Biroq 2024-yilda sezilarli pasayish kuzatilib, transfert hajmi 1 204 mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur holat markaziy budjetning transfert siyosatidagi o'zgarishlar yoki hududiy daromad bazasini kengaytirishga qaratilgan yangi siyosiy chora-tadbirlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



TDI ko'rsatkichi Xorazm viloyati uchun 2020-yilda 42,83 % ni tashkil etib, keyingi yillarda bosqichma-bosqich oshib, 2023-yilda 51,14 % ga yetdi. Bu ko'rsatkich o'rganilgan davrdagi eng yuqori daraja hisoblanadi. 2023-yilda TDI ning 50 % chegarasidan oshishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, budget xarajatlarining yarmidan ortig'i markaziy transfertlar hisobiga qoplanganini ko'rsatadi. 2024-yilda esa TDI ko'rsatkichi keskin kamayib, 25,67 % ni tashkil etdi.

**Transfertga qaramlik indeksi (TDI) dinamikasi
(Xorazm vs Respublika o'rtacha, 2020-2024)**



2-rasm. Transfertga qaramlik indeksi (TDI) dinamikasi: Xorazm va respublika o'rtachasi (2020-2024)


Respublika o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, Xorazm viloyatining TDI darajasi 2020-2023-yillarda respublika o'rtachasidan 1,5-5,9 foiz punktga yuqori bo'lgan. 2024-yilda ham Xorazm viloyatining TDI ko'rsatkichi (25,67 %) respublika o'rtacha darajasidan (19,39 %) 6,28 foiz punktga yuqori bo'lib qoldi. Bu holat Xorazm viloyati budgetining transfert siyosati bilan bog'liq jarayonlarga nisbatan ma'lum darajada sezgir ekanligini ko'rsatadi.

2-jadval. Xorazm va respublika o'rtacha TDI va MMK taqqoslama tahlili (%)

Yil	Xorazm TDI	Respublika TDI	Farq (f.p.)	Xorazm MMK	Respublika MMK	Farq (f.p.)
2020	42,83	41,30	+1,53	57,17	58,70	-1,53
2021	47,89	46,33	+1,56	52,11	53,67	-1,56
2022	46,83	46,62	+0,21	53,14	53,37	-0,23
2023	51,14	45,22	+5,92	48,84	54,78	-5,94
2024	25,67	19,39	+6,28	61,33	65,69	-4,36

Manba: Muallif hisoblamalari. F.p. — foiz punkti

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (MMK) viloyatning o'z daromadlari hisobidan budget xarajatlarini qoplash imkoniyatini baholovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Grafik 3 da ko'rsatilganidek, Xorazm viloyatida MMK 2021-yilda 52,11 % gacha pasaydi. Bu holat viloyat budjeti xarajatlarining sezilarli qismi o'z daromadlari hisobidan to'liq qoplanmaganligini anglatadi. 2024-yilda esa MMK 61,33 % ga yetib, o'rganilgan davrdagi eng yuqori darajani qayd etdi.



3-rasm. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (MMK) dinamikasi (2020-2024)


Respublika o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, Xorazm viloyatining MMK darajasi barcha yillarda respublika o'rtachasidan past bo'lib kelgan. Bu holat viloyatning soliq bazasi salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda qayd etilgan yuqori MMK ko'rsatkichi (61,33 %) transfert hajmining qisqarishi sharoitida ham viloyat budjetining nisbiy barqarorligi saqlanib qolganini anglatadi.

Regressiya tahlili natijalari

Transfertlar va budjet ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy baholash maqsadida ikki xil regressiya modeli qo'llanildi.

1-model (transfert ~ xarajat) bo'yicha natijalarga ko'ra, β -koeffitsiyent 0,4538 ga teng bo'lib, bu budjet xarajatlarning 1 mlrd so'mga oshishi transfert hajmining o'rtacha 454 mln so'mga ko'payishi bilan bog'liqligini bildiradi. Determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,598$ bo'lib, model umumiy o'zgaruvchanlikning 59,8 foizini izohlaydi.

2-model (transfert ~ daromad) bo'yicha esa $\beta = 0,5905$ va $R^2 = 0,273$ natijasi qayd etildi. Ikkinchi modelning izohlash darajasi nisbatan pastroq bo'lib, daromad ko'rsatkichi transfert hajmini mustaqil ravishda yetarli darajada tushuntirib bera olmasligini ko'rsatadi. Bu esa budjet tizimida transfertlar ko'pincha xarajatlarga hajmiga mos ravishda shakllanishi mumkinligini anglatadi.



4-rasm. Regressiya tahlili: transfert ~ xarajat (chap) va transfert ~ daromad (o'ng), Xorazm 2020-2024



3-jadval. Regressiya modellari natijalari

Ko'rsatkich	1-Model ($T \sim X$)	2-Model ($T \sim D$)
α (konstanta)	-262,09	-268,98
β (qiyalik)	0,4538	0,5905
R^2 (determinatsiya)	0,5981	0,2731
p-qiyamat	0,1250	0,3663
Standart xato (β)	0,1975	0,5176
F-statistika	5,27	1,40

Manba: Muallif hisoblamalari (Python scipy.stats asosida, $n=5$)

E'tiborli jihati shundaki, har ikkala modelda ham p-qiyamat 0,05 dan yuqori ($p_1 = 0,125$; $p_2 = 0,366$). Bu natija statistik jihatdan 5 % muhimlik darajasida bog'liqlik to'liq tasdiqlanmaganini ko'rsatadi. Biroq mazkur holat tanlama hajmining kichikligi ($n = 5$) bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, olingan ko'rsatkichlar umumiy iqtisodiy mantiq va kuzatilayotgan tendensiyalar bilan mos keladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda panel ma'lumotlardan foydalanib, uzoqroq davrni qamrab oluvchi kengroq empirik tahlillarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

(1) Xorazm viloyati mahalliy budjeti 2020–2024-yillar davomida barqaror daromad o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

(2) Transfertga qaramlik indeksi 42,83 % (2020) dan 51,14 % (2023) ga oshib, keyinchalik 2024-yilda 25,67 % ga kamaygan;

(3) Xorazm viloyatining TDI ko'rsatkichi o'rganilgan davrning to'rt yilida respublika o'rtacha darajasidan yuqori bo'lgan;

(4) Regressiya tahlili transfertlar va budjet xarajatlari o'rtasida o'rtacha darajadagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi ($R^2 = 0,598$).

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 48,84–61,33 % oralig'ida shakllangan bo'lib, bu viloyat budjetining ayrim davrlarda xarajatlarini to'liq qoplash uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarga ehtiyoj sezganini ko'rsatadi. 2023-yilda TDI ko'rsatkichining 50 % dan oshishi budjet xarajatlarida transfertlar ulushi yuqori bo'lgan davr kuzatilganini anglatadi.

Mavjud holatni yanada takomillashtirish hamda Xorazm viloyati mahalliy budjetining moliyaviy mustaqilligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchi, mahalliy soliq bazasini kengaytirish. Kichik va o'rta biznes rivojlanishini rag'batlantirish orqali yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hajmini oshirish, xususan, mulk solig'i va yer solig'i undirilishida samaradorlikni ta'minlash muhimdir.

Ikkinchi, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish. Transfert mexanizmini shaffof formulaviy asosga o'tkazish, hududlar uchun o'z daromadlarini oshirishga iqtisodiy rag'batlar yaratish (masalan, soliq tushumlari taqsimotida hududiy ulushlarni optimallashtirish) hamda maqsadli transfertlar samaradorligini monitoring qilish tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish. Viloyatda turizm, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, mahalliy industrial klasterlarni qo'llab-quvvatlash orqali soliq bazasini kengaytirish mumkin.

To'rtinchi, fiskal salohiyatni rivojlantirish. Mahalliy moliya mutaxassislarining malakasini oshirish, budjet rejalashtirish jarayonida zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish hamda monitoring va tahlil tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning ayrim cheklavlari ham mavjud. Jumladan, ma'lumotlar tanlamasi nisbatan qisqa davrni qamrab oladi ($n = 5$). Kelgusidagi tadqiqotlarda ko'proq yillarni qamrab oluvchi panel ma'lumotlardan foydalanish, bir nechta hududlarni qamrab olgan qiyosiy tahlillarni amalga oshirish hamda ko'p o'zgaruvchili regressiya modellarini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Oates, W. E. (1972). Fiscal Federalism. New York: Harcourt Brace Jovanovich.
2. Bird, R. M., & Smart, M. (2002). Intergovernmental fiscal transfers: International lessons for developing countries. *World Development*, 30(6), 899–912.
3. Rodden, J. (2002). The dilemma of fiscal federalism: Grants and fiscal performance around the world. *American Journal of Political Science*, 46(3), 670–687.
4. Weingast, B. R. (2009). Second generation fiscal federalism: The implications of fiscal incentives. *Journal of Urban Economics*, 65(3), 279–293.
5. Kurlyandskaya, G., Golovanova, N., & Barbashova, N. (2012). *Local Government Finance: The Challenges of the 21st Century*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
6. Ergashev, I. (2019). Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi: muammo va yechimlar. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(2), 45–58.
7. Toshmatov, Sh. (2021). O'zbekistonda budjetlararo munosabatlarni isloh qilish yo'nalishlari. *Moliya va bank tizimi jurnali*, 3(1), 12–24.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2020–2024). Mahalliy budjetlar to'g'risidagi hisobotlar. Available at: www.mf.uz
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *O'zbekiston raqamlarda*. Toshkent: DSQ nashriyoti.
10. Musgrave, R. A. (1959). *The Theory of Public Finance*. New York: McGraw-Hill.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>